

TA'LIM JARAYONIDA IJODIY FIKRLASHNI  
RIVOJLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI

*Muqimiv Sh.I. - Mustaqil tadqiqotchi*

*Sobirova M.I. - Mustaqil tadqiqotchi*

*Yusupova S.K. - [sobirovamunisa14@gmail.com](mailto:sobirovamunisa14@gmail.com)*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi filiali*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning usullari va vositalari uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlari nimani anglatishini va ular nima uchun bunday muhimlik jihatlari tariflangan. Ijodiy fikrlashning turli turlarini, ularni qanday qilib samarali qo'llashni va ijodiy fikrlash qobiliyatingizni rivojlantirish va oshirishning oddiy strategiyalarini ko'rib chiqamiz. Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish usullari va vositalari tariflangan.

**Kalit so'zlar:** kreativ qobiliyat, taksomoniya, pedagog, faoliyat.

### Kirish

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarni ijodiy ta'lim jarayonini yaratishga tayyorlash maxsus o'rganish obyektiga aylanganicha yo'q. Tadqiqotning alohida yo'nalishi sifatida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va qo'llash metodikasini ajratish asosan metodologik darajada amalga oshirilgan. Bunda yangi kreativ pedagogik texnologiyalar asosida yaratishning hamma bosqichlariga emas, faqat ularni AKT vositalari bilan amalga oshirilishigagina e'tibor berilgan. Ijodiy fikrlash ilmiy va pedagogik faoliyatda yuqori baholanadi va rag'batlantiriladi.. Ijodiy fikrlash ko'nikmasi pedagogik faoliyat davomida shakllanib va rivojlanib boradi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli-motivli yondashuv;(ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi).

Mazmunli yondashuv; (o'zida pedagogik, psixologik maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi).

Tezkor-faoliyatli yondashuv; (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir xarakterlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi).

Refleksiv-baholash; (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi).



Kreativlik potensialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni pedagogning kreativlik potensialini ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanib bajarishda faol ishtirok etadi.

Pedagog kreativlik potensialining ustuvor tamoyillari:

- Muammoli xarakterga egalik
- Ijodiy yo'naltirilganlik
- Imkoniyatlarni oshirib borish
- Individuallikka erishish
- Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi

- Bir butunlik, izchillik va tizimlilik
- Shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o‘zaro uyg‘unligi.

### Tadqiqot usullari va metodlar

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi.

- Tashabbuskorlik
- Kreativ qobiliyatga egalik
- Kreativ faollik
- Izlanuvchanlik

Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potentsialini uch darajada aniqlash imkonini beradi:

Yuqori

Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyon etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan.

O‘rta

Ba‘zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi.

Past

Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi.

Kreativlik “turli vaziyatlarda ta‘lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo‘lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi”.

Mohiyatiga ko‘ra OTM pedagoglarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish ular tomonidan pedagogik, psixologik hamda mutaxassislik fanlari asoslaridan to‘la xabardor bo‘lish, ular tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda faol qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hisobiga kechadi.

**1. Tabiiy imkoniyatlarga asoslanuvchi kreativlik:** Individning o‘ziga xos xatti-harakatlarini ifodalaydi.

**2. Birlamchi (umumiy) kreativlik:** Shaxsning ijodkorligini namoyon etuvchi umumiy qobiliyat (u bolaning 3-5 yoshida namoyon bo‘lib, 6-7 yoshida uning xatti-harakatlarida yaqqol ifodalanadi).

**3. Ixtisoslashgan kreativlik:** Ijtimoiy faoliyatning muayyan turi bo‘yicha ijodkorlikni namoyon etuvchi qobiliyat (unga ko‘ra kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalariga tayangan holda, uning ta‘sirida umumiy kreativlik yanada rivojlanadi)

Har qanday shaxsda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham ijodiy-kasbiy xarakterdagi

sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Ta'lim amaliyotini kuzatish, talabalar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini o'rganish, tashxislovchi metodlarni qo'llash natijasida mu'lum bo'ldiki, pedagoglarda kreativlik quyidagi to'rt bosqichda shakllanadi va rivojlanadi.

**Kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari:**

**1-bosqich:** Pedagogik, psixologiya, falsafa, estetika kabi fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o'zlashtirish.

**2-bosqich:** O'zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim jarayonida amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalarini hosil qilish.


**3-bosqich:** Mustaqil ravishda o'qib-o'rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish.

**4-bosqich:** Mavjud nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish.

**Natijalar va ularning muxokamasi**

Talabalarga kreativlik sifatlarining o'zlashtirilishiga erishish yo'lida pedagogik faoliyatni tashkil etishda yuqorida qayd etib o'tilgan barcha bosqichlar birdek ahamiyatli sanaladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Ta'lim jarayonini kuzatish, bevosita pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida quyidagi metodlar talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagogiklarda kasbiy faoliyatni tashkil etishda namoyon bo'luvchi ijodiy malakalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



Pedagogik vaziyatlarni hal qilish.

Shaxsda kreativlikni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar faqatgina ko'ngilochar xarakterdagi topshiriq, mashq yoki vazifalardan iborat bo'lib qolishi

kerak emas. Balki, talabalarga beriladigan barcha topshiriq, mashq va vazifalar mavjud davlat ta'lim standartlarga mos kelishi, talabalarga bilim, ko'nikma va malakalarini to'laqonli namoyish qila olish imkoniyatini yaratishi zarur. Mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilar talabalarni asta-sekin mas'uliyatdan ozod qilish orqali mustaqil ta'lim olishga rag'bat bildiradigan shaxs bo'lishlariga erisha olishlari lozim.

Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o'zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo'lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur. Quyida ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tiladi.

Lug'aviy ma'nosiga ko'ra "taksonomiya" tushunchasi "tartib bilan joylashtirish qonuni" ma'nosini anglatadi. Ob'yektlarni ularning o'zaro bog'liqligiga asoslangan holda murakkablashib boradigan darajalar ketma-ketligi (iyerarxik tarz)da joylashtirgan holda turkumlashtirish, tizimlashtirish "taksonomiya" deb ataladi.

Pedagogik taksonomiya – pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va xossasiga ko'ra ko'p bosqichli (iyerarxik) tuzilishga ega ob'yektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasi. B.Blum rahbarligida 1956 yilda AQSHda "Pedagogik taksonomiya" g'oyalari e'lon qilindi.

XX asrning 60-yillarida D.Kratvol va boshqalar tomonidan pedagogik maqsadlarni ifodalovchi taksonomiyaning navbatdagi g'oyalari shakllantirildi.

#### **B.Blum taksonomiyasi mezonlari:**

**Bilish:** Bilimlardan xabardor bo'lish, ularni o'zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi

**Tushunish:** Bilimlar kzasidan fikrlash, mushohada yuritish, nazariy holatdan amaliyotga ko'chish mantig'ini o'zlashtirish.

**Qo'llash:** Bilimlarni amaliyot (amaliy harakterlar)da qo'llash.

**Analiz:** Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit, bir butun ob'yekt, hodisa, voqelik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o'rganish, juz'iy xulosa chiqarish.


**Sintez:** Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun ob'yekt, hodisa, voqelik va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarish.

**Baholash:** Shaxsning nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma, malakalarga egaligini baholash.



Kreativlik qobiliyati va sifatleri mavjudligini aniqlashda E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalanish samarali natijalarni beradi.

Mazkur test quyidagi shtrixlardan iborat noaniq tasvirlardan iborat bo’lib, talabalarga ularni tugatib berish topshirig’i beriladi:



P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi shakillari.

P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi qo’llash jarayonida talabalar tomonidan ko’plab takliflar beriladi, qay darajada kreativlik sifatlariga egaligi, tasavvurining qanchalik boyligini ifodalaydi.

### Xulosa

Shunday qilib, hozirgi kunda o’qituvchining ijodiy fikrlash uning faoliyatini ilmiy-metodik ta’minlanishiga talab tug’ilayabdi, ammo buni amalga oshirish kreativ yondashuv uchun ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan usul va vositalarini o’rgatishning nazariya va metodikasida ko’rsatilgan savollarning mazmuni



yetarli darajada emas, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar umumiy tavsifga ega.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. В.В.Попова. Креативная педагогика. Методология, теория, практика [Электронный ресурс] / под ред. д. т. н., проф. В. В. Попова, акад. РАО. Ю. Г. Круглова. — 4-е изд. (эл.). — Электрон. текстовые дан. 322 с.. — М. : БИНОМ.
2. [Rebecca Hun Ping Cheung](#) & [Chi Hung Leung](#), Preschool Teachers' Beliefs of Creative Pedagogy: Important for Fostering Creativity, 2013. – Vol. 25, [Issue 4](#), P.397-407, DOI: <https://doi.org/10.1080/10400419.2013.843334>
3. Илин. Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб: Питер, 2009. - 434 с.
4. О.М.Yoqubov Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni baholash xususida .
5. I.S.Xotamov , M.K.Olimov , G.R.Madrahimov , I.S.Foziljonov. “Kreativ Fikrlash” o'quv qo'llanma. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2022
6. Baro'sheva T.A., Jigalov YU.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovo' razvitiya kreativnosti. SPb, 2006. -285s.
7. Psixologiya. Uchebnik dlya gumanitarno'x vuzov G' Pod obh. red. V. N. Drujinina. — SPb.: Piter, 2001. — 656 s.: il. — (Seriya «Uchebnik novogo veka»)
8. Axmetova D., Gure L. Prepodovatel vuza i innovatsionno'ye texnologii G'G' Vo'sshee obrazovanie v Rossii.— 2001.— №4.— S.138